

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 373 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonolari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni	65
Baymanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni	76
Jusupova Anjim Tansiqbaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	97
Abdulg'ayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области	109
Мусабоев Рустам Алижонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы	122
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрвна	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
To'irov Yunus Alamovich	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
Razzoqov Bexzod Gofurovich	
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment.....	196
Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish.....	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida.....	218
Umarov Davron Shavkatovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	223
Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari.....	227
Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich	

Experience of foreign countries in youth labor market research	231
Asqarova Muhabbat Ibraximovna	
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash	235
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
O'zbekistonda alkohol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili	241
Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari	247
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	253
Буранова Лола Вахобовна	
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish.....	263
Abdurahmanov Otabek Patidinovich	
"To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'lidagi muammolar va yechimlar"	270
Otaxanova Umida Olim qizi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari.....	275
Sayfulina Alfira Feratovna	
Oliy va xususiy ta'lim muassasalarida ta'lim menejmentini qo'llash hamda alohida mexanizmlarining tahlili.....	281
Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarishning nazariy asoslari	287
Yuldoshev Ulug'bek Asqar o'g'li	
Asosiy vositalarga oid BHXS va MHXSlar maqsadi va amaliyotda qo'llanilishi.....	293
Nematova Dilnoza Azamatovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va omillari	297
S.M.Xolxo'jayev	
The implementation of eco-tourism in supporting the optimality of tourism sector (case study in Indonesia and Uzbekistan)	302
Khalimova Mohirabonu, Alfira Sofia, Diana Igorevna Stepanova	
Innovations in export logistics for Uzbekistan's produce.....	310
Sevinch Makhmutullaeva	
Tijorat banklarida ichki audit faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati	314
Yo'ldashov Adham Tavboyevich	
Налоги и их роль в доходах бюджета Республики Узбекистан.....	319
Умида Юлдашева	
Tijorat banklarining daromad manbalarini raqamli texnologiyalar orqali kengaytirish yo'llari.....	323
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Цена пруденциальной политики Центрального банка Узбекистана.....	328
А.М. Абдукадиров	
Tax history	338
Mirhayotov Xusniddin	
Анализ состояния транзитных перевозок железнодорожного транспорта	341
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Kichik biznesning iqtisodiy rivojlanish salohiyatini baholash konsepsiyasi va uni baholash.....	344
Israilov Rustam Ibragimovich	
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ma'muriyatchiligini tashkil etishning ayrim masalalari.....	348
Idirisov Alisher Otajonovich	



Особенности разработки специальной одежды для работников прядильных предприятий.....	352
Н.Т. Гафурова, М.Э. Ходжаева, Б.Б. Бозоров	
Ways to improve the efficiency of banking services in our country	356
Muminova Masuda Bakhtiyorovna	
Zamonaviy sharoitlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy resurslarini boshqarish tahliliy ta'minotining dolzarb masalalari	360
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	368
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TASHQI BOZORGA CHIQISH IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI

Saidaxmedova Aida Mirzayevna

TDIU "Bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining tashqi bozorga chiqishida raqobat, raqobatbardoshlik va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Ushbu tushunchalarni kompleks tahlil qilish va ularning mohiyatini klassik nuqtayi nazardan o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarining tashqi bozorga chiqishida ularning raqobatbardoshligini baholash uslublariga ta'sir etuvchi diversifikatsiya, modernizatsiya va innovatsion omillar tahlil qilingan. Mamlakat eksport salohiyatini oshirishda ushbu omillar muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan, shuningdek, amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlar, tashqi bozor, raqobat, raqobatbardoshlik, xalqaro menejer, raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillar, eksport salohiyati, diversifikatsiya.

Abstract: This article examines competition, competitiveness, and the factors influencing them in the process of joint-stock companies entering foreign markets. Special attention is given to a comprehensive analysis of these concepts and their essence from a classical perspective. The article analyzes the impact of diversification, modernization, and innovative factors on the methods used to assess the competitiveness of joint-stock companies when entering foreign markets. It highlights their crucial importance in enhancing the country's export potential and provides practical recommendations and suggestions.

Key words: joint-stock companies, foreign market, competition, competitiveness, international manager, factors influencing competitiveness, export potential, diversification

Аннотация: В данной статье изучаются конкуренция, конкурентоспособность и факторы, влияющие на них при выходе акционерных обществ на внешние рынки. Особое внимание уделяется комплексному анализу этих понятий и их сущности с классической точки зрения. В статье анализируется влияние диверсификации, модернизации и инновационных факторов на методы оценки конкурентоспособности акционерных обществ при выходе на внешние рынки. Освещена их ключевая роль в повышении экспортного потенциала страны, а также приведены практические предложения и рекомендации

Ключевые слова: акционерные общества, внешний рынок, конкуренция, конкурентоспособность, международный менеджер, факторы, влияющие на конкурентоспособность, экспортный потенциал, диверсификация

KIRISH

- Jahon iqtisodiyotining shiddatli globallashuvi davrida integratsion jarayonlar yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki hozirgi zamonda jahon iqtisodiyotining integratsiyasi avvalo kapital, ishlab chiqarish, mehnat integratsiyasining uyg'unligida aks etadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi esa tashqi bozor va milliy iqtisodiyotning tizimli integratsiyasi bilan namoyon bo'lishi natijasida iqtisodiy o'sish jadallashadi, zamonaviy texnologiya va boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi tezlashadi. Mamlakatimizda ham tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirish yo'lida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tadbirlarga katta ahamiyat berilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyevovning farmonlarida strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" ijrosini ta'minlash doirasida milliy iqtisodiyotni tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bir qator amalga oshirish zikr etilgan vazifalar belgilangan, jumladan:

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;
- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish.



Shu jihatdan olganda, milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlashda ichki raqobat muhitini zamonaviy talablarga mos qayta shakllantirish orqali ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash va modernizatsiya qilish hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilishi bilan milliy iqtisodiyotga savdo, moliya, investitsiyalarni jalb qilishga intilishida ko'rinadi.

Shuning uchun, mazkur tadqiqot doirasida qayta ishlash sohasida "raqobatdoshlik" tushunchasining ilmiy tasnifini ochib berishni lozim deb hisoblaymiz. Ushbu muammoga bag'ishlangan izlanishlarni o'rganish davomida tadqiqotchilarning ko'pchiligi o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqib, raqobatdoshlikning ma'lum bir tasnifiy belgilarini tadqiq etganlar. Biz ham tarmoqda raqobat vaziyatini aniqroq tavsiflash, uning o'ziga xos tomonlarini ochib berish hamda raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun samarali vositalarni asoslash maqsadida, uning to'liq tasnifiy tizimini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Har qanday milliy kompaniya faoliyat yuritayotgan mahsulotlar bozorida raqobatning mavjudligi, uni muayyan raqobatdoshlikni ta'minlashini talab qiladi, aks holda uning rivojlanishi tugul, bozorda jon saqlab qolishi ham mushkul bo'lib qoladi. Shuning uchun ham, iqtisodiy faoliyatning biror-bir sohasida, uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, raqobatdoshlik mohiyatini aniqlash zarurati muhim ahamiyat kasb etadi.

"Raqobat" tushunchasini ta'riflashga quyidagi yondashuvlar alohida diqqatga sazovordir.

1. Raqobat bu bozordagi qandaydir harakatdir. Bunday yondashuv asosida eng yaxshi natijalarga erishish uchun musobaqalashish g'oyasi yotadi.

2. Raqobat talab va taklifning qat'iy muvozanatlashuvini ta'minlovchi bozor mexanizmining elementidir. Bu yondashuv klassik iqtisodiyot nazariyasiga taalluqlidir.

3. Raqobat bahoni shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy mezonlardan biridir. Bunday yondashuv raqobatni bozorning ajralmas xususiyatlaridan biri sifatida qarashga asoslanadi.

M.Porterning fikricha raqobat tushunchasi mohiyatini ochib berish har qanday tarmoqning tarkibiy tuzilishi va undagi o'zgarish jarayonlarini chuqur bilishga asoslanmogi lozim. U raqobat muhitini belgilovchi kuchlarni besh guruhga ajratadi:

- 1) yangi raqobatchilarning paydo bo'lish tahdidi;
- 2) mahsulot o'rmini bosuvchi yangi mahsulotlarning paydo bo'lish tahdidi;
- 3) mahsulot va xizmatlarni yetkazib beruvchilarning nimaga qodirligi;
- 4) iste'molchilarning munosabati va imkoniyatlari;
- 5) mavjud raqobatchilarning o'zaro musobaqalashuvi.

Shuningdek, raqobatdoshlik mahsulot yoki xizmatlarni boshqalardan iste'molchilarning talablarini qondirish xususiyatlari, xarid va foydalanish xarajatlari bo'yicha farqini aniqlovchi iste'mol xususiyatlari majmui sifatida ham ta'riflanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, milliy kompaniyaning muayyan bozori segmentida raqobatlashish imkoniyati uning mahsuloti raqobatdoshligiga va kompaniya faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilab berilgan muhim vazifalardan kelib chiqqan holda tadqiqot muammosi tanlangan. Tadqiqotning induksion yo'nalishi tanlangan bo'lib, ilmiy bilishning iqtisodiy tahlil, mantiqiylik, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash usullari orqali tadqiqot muammosi ochib berilgan. Xorijlik va yurtimiz olimlarining ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi. Raqobat, raqobatdoshlik, unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Ushbu tushunchalarni kompleks tahlil etish, ularning mohiyatini klassik maktab vakillari va noklassiklar nuqtayi nazaridan o'rganishga alohida e'tibor berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobat mahsulot sifatini oshirishga, xarajatlarni pasaytirishga hamda mehnat unumdorligini oshirishga undovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Taklif talabdan oshgan vaziyatda raqobat – aksiyadorlik jamiyatlar emas, balki ularning mahsulotlari o'rtasida vujudga keladi. Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, qayta ishlash kompaniyalari mahsulotlarining raqobatdoshligi majmuaviy tushuncha bo'lib, u texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy elementlar guruhidan iboratdir.

Texnik-texnologik parametrlarga xavfsizlik, texnik parametrlar o'zgarishlari chegaralarini belgilovchi standartlar, me'yorlar, qoidalar kiradi. Tashkiliy-iqtisodiy parametrlar esa mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, bahosi, xodimlarni o'qitish, sug'urtalash, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq



xarajatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ijtimoiy parametrlar – jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy va ekologik, reklama va targ'ibotni tashkil etish talablarining o'ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtiradi.

Shuningdek aksiyadorlik jamiyatlar raqobatdoshligi to'g'risida yuritilgan mulohazalar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: raqobatdoshlik tushunchasi mazkur bozorda mavjud bo'lgan o'xshash obyektlarga nisbatan muayyan ehtiyojni qondirish darajasi bilan tavsiflanadigan obyekt xususiyatini; mazkur bozordagi o'xshash obyektlarga nisbatan raqobatga dosh berish qobiliyatini; o'z mahsulotlari bilan kishilar ehtiyojini qondirish darajasi va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi bo'yicha milliy kompaniya rivojlanishining boshqalardan farqini ifodalaydi.

Milliy kompaniya tashqi bozordagi doimiy o'zgarishlarga moslashuvchan iqtisodiy salohiyatga ega bo'lishi lozim va u eng avvalo xorijiy iste'molchilarning o'zgaruvchan talablarini qondirishga yo'naltirilgan raqobatdosh mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarishga qaratiladi.

"Eksport salohiyati" eng avvalo milliy kompaniyaning tashqi bozorda raqobatdoshligini anglatadi. Ya'ni eksport salohiyati bir tomondan kompaniyaning raqobat salohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Raqobat salohiyati – kompaniyaning moddiy va nomoddiy resurslardan foydalangan holda raqobat ustunliklarini shakllantirib, bozorda samarali raqobat kurashini olib borishini ta'minlay oladigan ichki va tashqi raqobat imkoniyatlarini ifodalalar ekan. Shunga asosan kompaniyaning eksport salohiyatini raqobat salohiyatidan foydalanish darajasi sifatida e'tirof etish mumkin.

1-jadval. Mahsulotlar bozorining ta'minlanganligini turli darajalarida qo'llaniladigan strategiya variantlari¹.

Bozorning mahsulot bilan ta'minlanganlik darajasi/ Strategiya varianlari	Tanqislik, talabning taklifdan ortiqligi	Talab va taklif o'rtasidagi nisbiy tenglik	Takliflar bozori (taklif talabdan ortiqligi)
Mahsulot ishlab chiqarish strategiyasi	Songa asoslangan	Sifatga asoslangan	Raqobatga asoslangan
Biznesni tashkil qilishdagi yondashuvlar	Diqqat markazda ishlab chiqarish	Diqqat markazda mahsulot	Diqqat markazda iste'molchi
Mahsulotni iste'molchigacha yetkazish bo'yicha faoliyat	Mahsulotni tarqatish, ta'minlash	Savdo (mahsulot ayirboshlash)	Marketing (bozor va ishlab chiqarishni tashkil etish quroli sifatida)

Bundan kelib chiqadiki sanoat kompaniyasi va ularning mahsulotlari raqobat salohiyati asosida shakllanib, tashqi bozorda raqobat ustunliklari hisobiga ularning joriy darajasi eng ko'pi bilan salohiyat darajasigacha borib yetadi. Agarda muayyan raqobat muhitida salohiyatdan to'liq foydalangan holda korxona yoki uning mahsulotlari raqobatdoshligi talab darajasida bo'lmasa, eng avvalo raqobat salohiyatini oshirish va uni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Qayta ishlash kompaniyalari raqobatbardoshligining ko'zlangan darajasiga mahsulotning sifati va nomenklaturasini oshirishni ta'minlay oladigan boshqaruv tizimi orqali erishish mumkin. Unda eng maqbul strategiyani tanlash ko'p jihatdan mahsulotlar bozorining ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermiqdiki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi kompaniya va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqali sifatli va raqobatbardosh mahsulot tayyorlashni ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Bu borada mamlakatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda va yaqin kelajak uchun istiqbolli rejalar belgilab olingan. Hozirgi kunda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar qayta boshlandi. Eksportni yanada rag'batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga

¹ Manba: Xalilov N.X. Sanoat korxonalarida mahsulot sifati va raqobatdoshligini oshirishning metodologik masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali.



uyg'unlashtirish lozim. Asosiy maqsad – tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni —o'zbek brendi nomi bilan olib chiqishdan iborat.

Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish tarkibi shakllanishida birlamchi ravishda uning geografik o'rni, tabiiy resurslari va resurs salohiyati (mehnat resurslari, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqalar) muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud imkoniyatlar yetarli bo'lgan holatda, iqtisodiyotning hududiy ixtisoslashuvi shakllantiriladi hamda mamlakat aholisining va iqtisodiyot tarmoqlarini mahsulotlarga bo'lgan talabidan kelib chiqib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkoniyatini beruvchi samarali ishlab chiqarish tanlanadi.

Ishlab chiqarish tarkibi tanlanganidan so'ng, bozor qonuniyatiga ko'ra xaridorlarda talab bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish jarayoni boshlanadi, ya'ni uni ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchi tomonidan ushbu mahsulotga bozorda talabning bo'lishi korxona daromadini ta'minlasa, mahsulotning haddan tashqari ortiqchaligi esa mavjud bozorning to'yinishiga va bozorda mahsulot turlarining ortishiga olib kelishi oqibatida daromad o'sishiga teskari ta'sir eta boshlaydi. Shuning uchun, doimiy ravishda mahsulot ishlab chiqaruvchining oldida bir muammo turadi, bu ishlab chiqarish yo'nalishini hisobga olgan holda daromadli mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda uning ko'lamini kengaytirgan holda davom ettirishidir.

Bunda ishlab chiqaruvchi bir turdagi mahsulotdan olaolmagan me'yoriy daromadini boshqa turdagi yangi mahsulotni ishlab chiqarish hisobiga ega bo'lishga harakat qiladi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish mushkuldir.

Milliy kompaniyaning iste'molchilar bilan ishlaydigan har qanday mustaqil bo'limi, mahsulot hayotiy sikli qonuniyatlari asosida mahsulot assortimentini tezkor diversifikatsiyalash masalalarini o'zlashtirib olishi lozim. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xilma-xilligi kompaniyaning moddiy-texnik darajasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari kompaniya bo'limlari doimiy ravishda qulay bozorlarni izlashi zarur. Mustaqil bo'limlar o'zini-o'zi tashkil etishining bunday shakli, kompaniyaning asosiy mezon – jon saqlash bo'yicha rivojlanishini ta'minlaydi.

Diversifikatsiyaning strategik afzalliklari bir necha omillar bilan ta'riflanadi. Ulardan eng muhimlari quyida keltirilgan:

- sinergizm potentsiali – bu boshqaruvning yagona tizimi hamda nazorat va muvofiqlashtirish hisobiga turli xildagi biznesni o'zaro birlashuvda kuzatiluvchi xarajatlarni qisqarishi, shuningdek, kapital aylanmasining tezlashuvi natijasidir;
- biznesni axborotlar bilan ta'minlanish holatini yaxshilash, marketing tadqiqotlarini integratsiyasi;
- ishga oid aloqalarning doimiyliigi, yetkazib berish kafolati va turg'unligi o'z navbatida marketing va reklamaga yo'naltirilgan vositalarni tejash imkoniyatini beradi;
- texnologiyalar o'zgarishi hisobiga texnologik yutuq hamda ITKTI hamkorlikda bajarish sharoitini yaratadi;
- ta'minot kanallari, marketing, xizmat va sifat darajasini oshirish bo'yicha bajariladigan ish hisobiga mahsulotlarni solishtirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu ayniqsa to'g'ridan to'g'ri integratsiyada kuzatiladi.

Shuningdek, diversifikatsiya ehtimoldan yiroq bo'lmagan xavflarni hisobga olish bilan bog'liq mantiqiy harakterga ega bo'lishi shart. Chunki integratsiya ham xavfli bo'lishi mumkin. Diversifikatsiya faoliyatini, bir tomondan strategik potentsialni amalga oshirish ehtimoli bilan, boshqa tomondan esa muvozanatlashgan iqtisodiy va texnologik natijalarga erishish sifatida qabul qilish kerak. Bunda uchta asosiy muammo mavjud bo'ladi:

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hech bir milliy kompaniya ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalashsiz barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'la olmaydi. Yana shuni ham e'tiborga olish lozimki, diversifikatsiya strategiyasi doimiy ravishda o'zgartirib, takomillashtirib borilishi zarur. Yangi vaziyatga moslashtirish ishlari umumiy holda mahsulotni tabaqalashtirish, texnologiya va mahsulotni takomillashtirish, yangi sotish tizimi va kanallarini yaratish, yangi iste'molchilar segmentlarini topish, faoliyatning geografiasini kengaytirish hamda baho pasayishiga sezgir xaridorlarni o'ziga jalb qilish uchun chegirmalar joriy etish tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ichki jarayonlar iste'molchilar ehtiyojini qoniqtirishga yo'naltiriladi. Tashqi jarayonlar shu bilan birga kompaniya ichki va ikki tomonlama funksional jarayonlarida aniqlangan tamoyillariga yo'nalish beradi. Ko'rilayotgan jarayonlar tamoyillar (omillar)ning ko'pligidan dalolat beradi. Kompaniya raqobatdoshligini belgilovchi tamoyillarni tanlash bo'yicha berilgan yondashuv yuqorida ko'rilganlardan uncha farq qilmaydi. Bu yondashuv esa bir vaqtning o'zida korxonaga o'zaro funksiyalararo ta'sirga mo'ljallangan boshqaruv tuzilishini qurish imkoniyatini beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlar mahsulotlarining jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlashda quyidagilarni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir:



- eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish;
- eksport qiluvchi kompaniyalarga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko'maklashish;
- ularni tashqi bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishtirish;
- transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va yangi transport yo'laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish;
- raqobatdosh va ilmtalab innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish;
- xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni standartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikatlash sohasida hamkorlik qilish ko'lamini yanada kengaytirish;
- xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazoratni joriy etish;
- xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarning transportda tashish xarajatlarini kamaytirish.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun jahon bozorlariga chiqish va o'z mahsulotlarini eksport qilish mamlakat uchun ham, alohida aksiyadorlik jamiyatlar uchun ham manfaatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Антипов, А. Ю. Инновационная деятельность как фактор конкурентоспособности фирмы // Маркетинг и маркетинговые исследования. – 2009. – №3. – С. 212–221.
2. Аренков И. А., Салихова Я. Ю., Гаврилова М. А. Конкурентный потенциал предприятия: модель и стратегии развития // Проблемы современной экономики. – 2011. – №4.
3. Воронов Д. С. Оценка, анализ и выявление путей повышения конкурентоспособности предприятий. Дисс. канд. экон. наук. – Екатеринбург, 2002.
4. Демченко, А. Маркетинговые инновации в условиях кризиса // Маркетинг. – 2009. – №1. – С. 44–50.
5. Котлер Ф. Маркетинг XXI века. Маркетинг от А до Я. Новые маркетинговые технологии. Десять смертных грехов маркетинга: пер. с англ. / под ред. Т. Р. Тэор. – СПб.: Нева, 2005. – 432 с.
6. Макконнел К. Р., Брю С. Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т. – М.: Республика, 1993.
7. Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005.
8. Просветов Г. И. Стратегия предприятия. – М.: Альфа-Пресс, 2010.
9. Румянцев А. М. Экономическая энциклопедия. Политическая экономия. – М.: Энциклопедия, 2010.
10. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народа. – Петрозаводск: Петроком, 1993.
11. Томпсон А. А., Стрикленд А. Дж. Стратегический менеджмент: концепции и ситуации для анализа, 12-е издание: пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2003.
12. Фатхутдинов Р. А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление. – М.: ИНФРА-М, 2000.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

